

QO'SHMA (IKKI DIPLOMLI) TA'LIM DASTURLARINING MODELLARI VA RIVOJLANISHI

Egamberdiyeva Umidaxon Elmurod qizi

O'zDJTU talabasi

Umidaxonegamberdiyeva41@gmail.com

Tel: +998 94 361 24 00

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy oliy ta'lim tizimida katta o'rin tutayotgan qo'shma (ikki diplomli) ta'lim dasturlarining mohiyati, asosiy modellari, jahon tajribasi va O'zbekistondagi rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Bunday dasturlarning afzalliklari va muammolari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: qo'shma ta'lim, ikki diplom, xalqaro hamkorlik, akademik mobillik, integratsiya, oliy ta'lim.

Bugungi kunda dunyo bo'ylab oliy ta'lim tizimi juda ham tez rivojlanmoqda. Talabalar nafaqat milliy, balki xalqaro darajada tan olingan diplomga ega bo'lishni istashmoqda. Shu sababli qo'shma (ikki diplomli) ta'lim dasturlari katta ahamiyat kasb etmoqda. Qo'shma dasturlar talabalarni turli mamlakatlarda malaka oshirish, davlatlar aro muloqotni yaxhilash, chet el standartlariga javob beradigan darajada ta'lim olish va madaniy tajriba orttirishga yordam beradi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda xorijiy universitetlar bilan qo'shma dasturlar tashkil etilishi soni oshmoqda. Masalan, O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va Milliy universitet xorijiy universitetlar bilan hamkorlik qilmoqda. Bu esa yoshlarni xalqaro standartlarga mos bilimga ega bo'lishga, bilimlarini charxlashga, tashqi aloqalarni mustahkamlashga, dunyo bo'ylab madaniy aloqalar o'rnatishga undaydi.

Qo'shma ta'lim dasturlarining tushunchasi. Qo'shma (ikki diplomli) ta'lim dasturi — bu ikki yoki undan ortiq oliy ta'lim muassasalari o'rtasida tuzilgan hamkorlik asosidagi ta'lim shakli. Bu dastur mobaynida talabalar har ikki universitetning o'quv reja va baholash tizimiga rioya qiladi va natijada ikki davlatning diplomiga ega bo'ladi. Bunday dasturlar odatda xalqaro tajribaga ega bo'lishni, xalqaro darajadagi mutaxassis bo'lish, til bilimini oshirishni, hamda turli madaniyatlarni o'rganishni istagan talabalar uchun mo'ljallangan. Masalan, talaba O'zbekistonda 2 yil, Germaniyada esa 2 yil o'qib, ikki davlat universitetining diplomlarini qo'lga kiritishi mumkin.

Qo'shma ta'lim dasturlarining modellari. Qo'shma dasturlar bir necha turdagi modellarga ega: **1. Ikki diplomli model (Double Degree)** Bu modelda talabalar har ikki Oliy Ta'lim Muassasasining barcha talabalarini bajaradi va natijada ikkita alohida diplomni qo'lga kiritadi. Masalan, O'zbekiston Davlat Jahon tillari Univeriteti bilan Germaniyaning biror universiteti bilan hamkorlikda o'qish. Bu model talaba uchun eng keng qamrovli va mukammal o'quv darajasini beradi.

2. Qo'shma diplom modeli (Joint Degree) Bu modelda talaba bitta diplom oladi, lekin uni ikkala Oliy Ta'lim Muassasasining nomidan berishadi. Misol tariqasida Erasmus Mundus dasturlari keltirilishi mumkin, bunda talabalar Yevropa universitetlari bilan hamkorlikda o'qib, qo'shma diplom olishlari mumkin bo'ladi.

3. 2+2 yoki 3+1 modeli. Talaba dasturining bir qismini o'z mamlakatida, qolgan qismini xorijiy universitetda o'qiydi. Masalan, talabalar 3 yil O'zbekistonda, 1 yil Germaniyada o'qib

bitirishlari mumkin. Bu model moliyaviy jihatdan biroz osonroq va talabalar uchun yaxshiroq moslashuv imkoniyatini beradi.

4. Modulli model. Dastur modullar asosida tashkil etiladi va har bir modul turli OTMda o'tiladi. Masalan, bir semestr Yevropada, keyingi semestr O'zbekistonda bo'lishi mumkin. Bu model talabalarni turli ta'lim tizimlari bilan tanishtiradi va turli o'quv jarayonlari va sharoitlariga moslashtiradi.

Jahon tajribasi. Yevropada qo'shma ta'lim dasturlari keng tarqalgan. Erasmus+ va Tempus kabi dasturlar orqali talabalar bir necha davlatlarda o'qib, ushbu mamlakatlarning diplomlarini olishadi. AQSh va Janubiy Koreya universitetlari ham qo'shma dasturlarni faol rivojlantirmoqda. Masalan, 2025 yilda Erasmus+ dasturida 4000 dan ortiq talabalar bir nechta davlatlarda o'qish imkoniyatiga ega bo'lishdi va bu ularning malaka va bilimni oshirishga xizmat qiladi. Xitoyda ham ikki diplomli dasturlar tobora ko'paymoqda. Talabalar Xitoy va Yevropa universitetlarida o'qib, xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishmoqda.

O'zbekistondagi rivojlanish. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda qo'shma ta'lim dasturlariga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zDJTU bugungi kunda xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'ygan OTMlardan biri. Universitet dunyoning 180 dan ortiq oliy ta'lim muassasalari bilan turli darajalarda hamkorlikni olib bormoqda, jumladan AQSH, Yevropa, Arab davlatlari, Afrika va MDH davlatlarining universitetlari bilan hamkorlik aloqalari mavjud. Bu dasturlar yoshlarni xalqaro standartlar asosida tayyorlashga yordam beradi, ularning til va kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantiradi va mehnat bozorida raqobatbardosh kadrkar bo'lishini ta'minlaydi.

Afzalliklari:

- Xalqaro diplom olish imkoniyati
- Mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish
- Chet tilini rivojlantirish
- Turli madaniyat va tajriba orttirish

Muammolari:

- Yuqori moliyaviy xarajatlar
- Til va moslashuv qiyinchiliklari
- Akkreditatsiya va huquqiy masalalar
- Dasturlarni boshqarish va rejalashtirishdagi murakkabliklar

Qo'shma (ikki diplomli) ta'lim dasturlari zamonaviy oliy ta'limning muhim yo'nalishi hisoblanadi. U yoshlar uchun global imkoniyatlar yaratadi va mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda ham ushbu dasturlar soni ortib bormoqda va kelajakda ular yanada kengayadi, talabalar xalqaro darajadagi bilim va tajriba olish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'zDJTU xalqaro hamkorlikni faqat memorandumlar darajasida emas balki amaliy qo'shma ta'lim dasturlari orqali ham amalga oshirmoqda. Bu imkoniyatlar O'zbekiston talabalarining xalqaro ta'lim maydonida raqobatbardosh bo'lishiga va davlatga yetarli darajada kerakli kadr bo'lib yetishishiga, hayot yo'llarida va davlatga foyda keltirish yo'lida o'ziga xos o'rinni egallay olishiga katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. "Xorijiy universitetlar bilan hamkorlik va qo'shma dasturlar" – 2025.
2. Erasmus+ Program. Annual Report 2025. <https://erasmus-plus.ec.europa.eu> (<https://erasmus-plus.ec.europa.eu/>)

3. European Commission. "Joint and Double Degree Programs in Europe". Brussels, 2024.
4. Tashkent State University of Economics. "Double Degree Programs with Russian Universities". Tashkent, 2025.
5. UNESCO. Global Education Monitoring Report, 2026.
6. Abdullayev, S. "Oliy ta'limda xalqaro integratsiya: O'zbekiston tajribasi". Tashkent, 2024.